



## ENSURING OPENNESS AND TRANSPARENCY IN THE ACTIVITIES OF INTERNAL AFFAIRS BODIES IS AN URGENT TASK

**Umirzakov Dilshod Yusupovich**

Responsible employee of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10837595>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> March 2024  
Accepted: 18<sup>th</sup> March 2024  
Online: 19<sup>th</sup> March 2024

### KEYWORDS

*Internal affairs bodies, openness and transparency, human rights.*

### ABSTRACT

*In this article, the opinions of legal scholars on ensuring openness and transparency in the activities of internal affairs bodies are studied, suggestions and recommendations are developed by the author.*

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОТКРЫТОСТИ И ПРОЗРАЧНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ ЯВЛЯЕТСЯ АКТУАЛЬНОЙ ЗАДАЧЕЙ

**Умирзаков Дилшод Юсупович**

Ответственный сотрудник МВД Республики Узбекистан

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> March 2024  
Accepted: 18<sup>th</sup> March 2024  
Online: 19<sup>th</sup> March 2024

### KEYWORDS

*Органы внутренних дел, открытость и прозрачность, права человека.*

### ABSTRACT

*В данной статье изучаются мнения ученых-правоведов по вопросам обеспечения открытости и прозрачности в деятельности органов внутренних дел, разрабатываются предложения и рекомендации автора.*

## ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH – DOLZARB VAZIFA

**Umirzakov Dilshod Yusupovich**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi mas'ul xodimi

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> March 2024  
Accepted: 18<sup>th</sup> March 2024  
Online: 19<sup>th</sup> March 2024

### KEYWORDS

*Ichki ishlar organlari, ochiqlik va shaffoflik, inson huquqlari.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada ichki ishlar organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash borasida huquqshunos olimlar fikrlari mulohazalar o'rganilib, muallif tomonidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*



Bugungi kunda inson huquqlari masalasiga butun dunyo ahli katta e'tibor bilan qaramoqda. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham inson huquqlari sohasida turli islohotlarning amalga oshirilishi, uning ko'plab xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lganligi hamda inson huquqlariga oid hujjatlarning ratifikatsiya qilinganligi O'zbekiston Respublikasida ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga e'tibor kuchayganligining yaqqol dalilidir.

Bu borada mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev inson huquq va erkinliklarini himoya qilish asosiy vazifasi hisoblangan ichki ishlar organlarining faoliyatiga ham alohida e'tibor berib kelmoqda. Chunki aynan ichki ishlar organlari mustaqil O'zbekistonning mamlakatdagi tinchlik va barqarorlik mavjud bo'lishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlaydi.

Ichki ishlar organlari – davlatning huquqni muhofaza qilish organi bo'lib, u fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini turli g'ayriqonuniy tazyiqlaridan himoya qiladi. Ichki ishlar organlari qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifasini amalga oshiradi. Ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qilish vazifasini amalga oshirishning muhimligi huquqiy davlatni shakllantirish va fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida yanada oshadi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida mehnat qilayotgan insonlar, birinchi navbatda, rahbarlar, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etishi, bu qoidalarga butun jamiyat a'zolari qat'iy amal qilishi shart bo'lgan muhitni yaratish g'oyat muhim va dolzarb vazifaga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Shu tariqa Konstitutsiyamizda jamoat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning mustahkamlab qo'yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Ichki ishlar organlari faoliyati ochiqligining o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, u ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashning maqsadini, vazifalarini, asosiy prinsiplarini, ochiqlikni ta'minlovchi axborotlarni, ichki ishlar organlari faoliyatiga oid axborotlardan foydalanuvchilar va ularning huquqlarini, ochiqlikni ta'minlovchi tarkibiy tuzilmalar yoki shaxslar hamda ularning vakolatlarini hamda ochiqlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari, shakl va usullarini o'z ichiga oladi.

Ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashning maqsadi ular tarkibiy tuzilmalari faoliyatining oshkoraligi va shaffofligiga erishish, jismoniy va yuridik shaxslarning axborotni izlash, olish va undan foydalanish huquqini kafolatlash, shuningdek axborotning muhofaza qilinishini hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash orqali jamiyatda inson huquq va erkinliklarini, jamoat tartibi va xavfsizligini, jinoyatchilikka qarshi kurashni, uning profilaktikasini samarali tashkil etishning demokratik milliy tizimini shakllantirishdan iboratdir.

Ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning serqirraligi, davlat va xizmat sirlarini saqlash, shuningdek inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibi va xavfsizligi, jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqbuzarliklar



profilaktikasini ta'minlash kabi murakkab vazifalarni bajarish bilan chambarchas bog'liqligi hamda jamiyatda hamma vaqt ham ular faoliyatiga qarshi bo'lgan g'araz niyatli buzg'unchi kuchlar mavjudligi ichki ishlar organlari ayrim faoliyat jarayonlari va bosqichlarining ochiqligini ta'minlashning juda ham murakkab va o'ta mas'uliyatli ekanligini belgilaydi. Shuning uchun ham har bir xodimdan eng avvalo ichki ishlar organlari faoliyati ochiqligining asosiy prinsiplari va ularning mazmun-mohiyatini bilish hamda ularga og'ishmay rioya etish talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga asosan ichki ishlar organlari faoliyati ochiqligining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: ular tomonidan taqdim etiladigan axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, uning o'z vaqtida berilishi va ishonchliligi; ular faoliyatining oshkoraligi va shaffofligi; ichki ishlar organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligi; ichki ishlar organlari faoliyati to'g'risida axborot taqdim etishda fuqarolarning o'z sha'ni va qadr-qimmatini tajovuzlardan, o'z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo'lgan huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z ishchanlik obro'sini himoya qilishga bo'lgan huquqlariga rioya etish.

Biroq, har qanday holat va sharoitda ham ichki ishlar organlari faoliyatiga oid taqdim etilayotgan axborotlar ishonchli, ya'ni aniq fakt va ma'lumotlarga asoslangan hamda oldindan tekshirib ko'rilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, ichki ishlar organlari faoliyatining oshkoraligi va shaffofligi, ya'ni sohaviy xizmat va ularning tarkibiy tuzilmalari o'z faoliyatlarini ochiq-oydin, tevarak-atrofdagilarning ko'z oldida hamda ulardan yashirmagan holda amalga oshirishlari shart. Masalan, profilaktika inspektori yoki yo'l harakati xavfsizligi xizmati mas'ul xodimi aniqlangan ma'muriy huquqbuzarlik holati bo'yicha bayonnoma va boshqa hujjatlarni huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, guvohlar ko'z oldida, ochiq-oydin ularning huquqlarini tushuntirgan holda rasmiylashtirishi talab qilinadi.

Lekin, ichki ishlar organlarining ayrim xizmatlari faoliyatida, xususan tezkor-qidiruv faoliyatini, ayrim tergov harakatlarini amalga oshirishda amaldagi qonun hujjatlari, ya'ni Jinoyat-protsessual kodeksi, Tezkor-qidiruv faoliyati qonuni normalari, shuningdek idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida cheklovlarga yo'l qo'yiladi. Masalan, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda foydalanilayotgan yoki foydalanilgan kuchlar, vositalar, manbalar, usullar, tezkor-qidiruv faoliyati rejalari va natijalari, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning shtatdagi oshkor qilinmaydigan xodimlari hamda mazkur organlarga maxfiylik asosida ko'maklashayotgan shaxslar to'g'risidagi, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish taktikasi haqidagi ma'lumotlar davlat sirini tashkil etadi hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda, faqat tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbarining qarori asosida oshkor etilishi lozim [\[1\]](#).

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga asosan, jismoniy va yuridik shaxslar axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega. Ushbu qoidalar ichki ishlar organlari faoliyatiga oid axborotlarga ham taalluqlidir. Shu bilan birgalikda ichki ishlar organlari faoliyatiga oid axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlarini, mamlakatning ma'naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini



muhofaza qilish, xavfsizligini ta'minlash maqsadida cheklanishi mumkin. Ularning axborot olish huquqi kafolatlanadi va axborotni izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi. Ichki ishlar organlari va uning mansabdor shaxslari davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirdan iborat axborotni berishlari mumkin emas[2].

Ichki ishlar organlarining tuzilmalari boshqa davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo'yicha hamkorlikdagi faoliyatida quyidagi axborotlarni almashadi:

- huquqbuzarliklar faktlari haqida;
- odamlarning hayotiga yoki sog'lig'iga tahdid soladigan oilaviy-maishiy nizolar to'g'risida va oilaviy-maishiy munosabatlar sohasidagi huquqbuzarliklar haqida;
- ta'lim oluvchi shaxs g'ayriijtimoiy xulq-atvorga va huquqbuzarliklar sodir etishga jalb etilganligi haqida;
- ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar va atrofdagilar uchun xavf soluvchi boshqa kasalliklar tarqalganligi haqida;
- badaniga shikast yetgan yoxud behush holatda bo'lgan shaxslar kelib tushganligi yoki murojaat etganligi haqida;
- odamlarning hayotiga yoki sog'lig'iga tahdid soladigan oilaviy-maishiy nizolar to'g'risida va oilaviy-maishiy munosabatlar sohasidagi huquqbuzarliklar haqida;
- voyaga yetmagan shaxs g'ayriijtimoiy xulq-atvorga va huquqbuzarliklar sodir etishga jalb etilganligi haqida;
- huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslar haqida xabar qilishi shart;
- ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalar, huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etgan voyaga yetmaganlar to'g'risida.

Mamlakatimizda ichki ishlar organlari tizimini isloh qilish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Shu qatorda ichki ishlar organlarini fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi yo'nalishida ham ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Jumladan,

- respublikamizning barcha hududlarida ichki ishlar organlarining tayanch punktlari tashkil etilib, ularda profilaktika inspektorlarining faoliyati yo'lga qo'yildi;
- ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining o'zaro hamkorligi takomillashtirildi;
- ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ular negizidagi jamoat tuzilmalari bilan o'zaro hamkorligi yanada mustahkamlandi;
- ichki ishlar organlari moddiy-texnika bazasi, xodimlarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy-huquqiy himoyalash takomillashtirildi.

Ichki ishlar organlarining fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularni ro'yobga chiqarish tartibi to'g'risidagi, shuningdek sohaviy xizmatlar va ularning tarkibiy tuzilmalari huquqiy maqomini belgilovchi qonun hujjatlari hamda axborot tizimlarining ochiq fondlari maxfiy ma'lumotlarga kirmaydi. Ichki ishlar organlari jamiyat manfaatlariga taalluqli voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga xabar berishlari shart. Ichki ishlar organlari faoliyatiga oid axborotlardan barcha yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalanishi va ularning haqqoniyligi hamda ishonchliligi ta'minlangan bo'lishi kerak.



Ichki ishlar faoliyatiga oid har qanday axborotni buzib talqin etish va soxtalashtirish taqiqlanadi hamda javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ichki ishlar organlari faoliyatiga oid axborotlarni tarqatayotganlar axborotning haqqoniyligi uchun ushbu axborotni taqdim etgan shaxs va uni e'lon qilgan muallif bilan birgalikda qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Davlat jismoniy va yuridik shaxslarning ichki ishlar organlari faoliyatiga oid axborotni izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqini himoya qiladi.

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga qarab ichki ishlar organlari faoliyatiga oid axborot olish huquqi cheklanishiga yo'l qo'yilmaydi. Zero, ichki ishlar organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchilarni ularning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta'minlashga majburlarlar[3].

Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar boshqarmasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan: ichki ishlar organlari faoliyatini axborot kuzatuvchi ishlarini muvofiqlashtirish, ular mansabdor shaxslarining fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuv va brifinglarini, jamoat xavfsizligini ta'minlash va mamlakatda huquq-tartibotni mustahkamlash masalalari bo'yicha fuqarolar bilan ochiq, to'g'ridan to'g'ri muloqotlarini tashkil etish; huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi ichki ishlar organlari faoliyati to'g'risida aholiga o'z vaqtida va ishonchli axborot yetkazish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rish va zarur shart-sharoitlar yaratish; hududiy ichki ishlar organlarining matbuot xizmatlari faoliyatiga tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatish, ularni respublikaning jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan mustahkam hamkorlik o'rnatishlarini ta'minlash; ommaviy axborot vositalari va butunjahon Internet axborot tarmog'i materiallarini tunu-kun monitoring va tahlil qilishni ta'minlash, noto'g'ri xabar yoki ichki ishlar organlari obro'siga putur yetkazuvchi materiallarga zudlik bilan munosabat bildirish; O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi rasmiy veb-saytining samarali faoliyatini tashkil etish, unga doimiy ravishda axborot materiallarini joylash hamda ichki ishlar organlari tarkibiy bo'linmalarining veb-resurslarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

Shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligini, oshkoraligini, ulardan ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari keng foydalanishini ta'minlashga qaratilgan normalarining samarali ishlashini ta'minlaydi; ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashga oid u yoki bu qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, ularni samarali qo'llash mexanizmlarini yaratish hamda idoraviy huquq ijodkorligi jarayonini amalga oshirishda shu masalaga oid takliflar ishlab chiqish imkonini beradi; ichki ishlar organlari rahbarlari o'zlari qabul qilayotgan qarorlarning, avvalo, bevosita fuqarolar, jamoatchilik manfaatlariga daxldor masalalar bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlarning mazmun-mohiyatini matbuot anjumanlari, brifinglar o'tkazish, intervyular berish



orqali tushuntirish ishlarida faol ishtirok etishini rag'batlantirishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlari, usullarini maromiga yetkazishni ta'minlaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonunning talablarini ichki ishlar organlari faoliyatiga tatbiq etish muayyan o'ziga xoslikka ega. Chunki ichki ishlar organlarining faoliyati jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurash kabi serqirra bo'lib, bu jarayonda doimo maxfiylik tartibi qoidalariga ham rioya etish talab nuqtayi.

Shu nuqtayi nazardan, boshqa davlat hokimiyati organlarining ochiqligi bilan bog'liq jihatlar ichki ishlar organlari faoliyatida ta'minlanadigan ochiqlik bilan muayyan darajada ajralib turadi. Yuqorida ta'kidlaganidek, ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash quyidagi usullarda amalga oshiriladi: ichki ishlar organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish (chop etish); ichki ishlar organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni ularning rasmiy veb-saytlarida joylashtirish va yangilab borish; ichki ishlar organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalarga va joylarga joylashtirish hamda yangilab borish; ichki ishlar organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni axborot-kutubxona va arxiv fondlari orqali taqdim etish; ichki ishlar organlarining ochiq hay'at majlislarida axborot dan foydalanuvchilarning hozir bo'lishi uchun sharoitlar yaratish; axborotdan foydalanuvchilarning so'rovi asosida ularga ichki ishlar organlarining faoliyati to'g'risida og'zaki va yozma shaklda (jumladan, elektron hujjat shaklida) axborot taqdim etish.

Ichki ishlar organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish (chop etish) ichki ishlar organlarining rasmiy nashrlari, rasmiy veb-saytlari, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. Ichki ishlar organlarining o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni tayyorlash hamda tarqatish vazifalarini ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan hamkorlikni ta'minlovchi tarkibiy bo'linmasi yoxud ushbu vazifalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxs amalga oshiradi. Ular ommaviy tadbirlarni tashkil etish, axborot xabarlarini (press-relizlar, byulletenlar va hokazolarni) tarqatish, shuningdek ichki ishlar organlarining rasmiy veb-saytida ularning faoliyati to'g'risidagi axborotni joylashtirish va yangilab borish orqali ichki ishlar organlarining faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish chora-tadbirlarini ko'radi.

Ichki ishlar organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni matbuot xizmatlari jumladan, ommaviy axborot vositalarida, matbuot anjumanlari va brifinglarda vakolatli mansabdor shaxslarning intervyu va bayonotlari, orqali e'lon qilishi mumkin.

Axborot infratuzilmasini tuzish qoidalariga muvofiq, davlat hokimiyati organlarining aholi va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro aloqalari o'zida barcha resurslarni jamlagan portal orqali amalga oshirilishi kerak. Buning ichki ishlar organlarida o'z afzalliklari bor. Jumladan: sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlar to'g'risida aholiga xolis ma'lumot yetkazish imkonini beradi; aholini ichki ishlar organi tashabbuslari va dasturlarini qo'llab-quvvatlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olish ishlarida faol ishtirok etishga jalb qiladi; ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlaydi; kundalik hamda zudlik bilan hal etishni talab etadigan dolzarb muammolarning yechimini topishda turli davlat tuzilmalarining birgalikda harakat qilishi uchun imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, ichki ishlar organlarining faoliyati to'g'risida axborot tarqatishning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa usullaridan ham foydalanishi mumkin. Ichki ishlar organlari



faoliyati to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi lozim bo'lgan axborot, jumladan, mansabdor shaxslarning chiqishi va bayonotlari to'g'risidagi ma'lumot, matbuot xabarnomasi, axborot xizmati (yoki vakolat berilgan shaxs) tomonidan tayyorlanadi va belgilangan tartibda tasdiqlangach, chop etish uchun ommaviy axborot vositalariga tarqatiladi.

Qayd etish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarini chuqur demokratik isloh qilish, erkinlashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash juda muhim. Hokimiyat barcha shaxslar uchun ochiq bo'lishi, ular bilan ikki tomonlama aloqa vositalariga ega bo'lishi, ularning muammolarini bilishi lozim. Ana shundagina biz adolatli demokratik jamiyat qurishimiz, aholining keng qatlamlarini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayoniga jalb eta olishimiz mumkin bo'ladi.

Fikrimizcha, aholining axborotdan erkin foydalana olishi uchun keng imkoniyat yaratmasdan, joylardagi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa muammolarni hal etishda xalqning fikrini muntazam hisobga olib bormasdan, chinakam demokratiyani tasavvur etib bo'lmaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini yanada oshirish, kuchli huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish jarayonida aholi barcha qatlamining mas'uliyati, daxldorligi va to'laqonli ishtirokini ta'minlash imkoniga to'liq erishish uchun axborotdan erkin foydalanishni ta'minlash kerak.

O'zbekiston global axborot makonining bir qismi sifatida rivojlanish yo'lini tanlagan ekan, albatta, axborotlarni yashirib emas, balki imkon qadar O'zbekiston haqidagi axborotlarni birinchilardan bo'lib tarqatish orqali, qolaversa, jamiyatda fikrlar xilma-xilligini ta'minlash orqali erishish mumkin.

Davlat organlari faoliyatining ochiq bo'lishi bugun ularning xohishi emas, balki majburiyati bo'lishi lozim. Zero, axborot xurujlari sharoitida axborotni bekitish emas, balki birinchi bo'lib tarqatish foyda keltiradi. Ushbu masalalarni hal etish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonun[4]ining talablarini ichki ishlar organlari faoliyatida keng tatbiq etish ularning faoliyatini har tomonlama baholash, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish, aholining ichki ishlar organlarida olib borilayotgan islohotlar hamda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi kurash amaliyoti bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi.

Bizning fikrimizcha, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi – bu so'z va axborot erkinligi, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar siyosatining ochiqligini ta'minlash, davlat organlari tomonidan qabul qilinayotgan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan axborotlar to'g'risida aholini xabardor etishda ommaviy axborot vositalarining, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash huquq normalarini bilish, ularni ijtimoiy hayot talablariga munosib yoki nomunosib ekanligiga baho bera olish, amaldagi huquqiy normalariga o'zgartirish kiritish yoki ularni yanada takomillashtirish zarurligini anglash kabi talablardan iboratdir. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash huquqiy normalarning yaratilishi, rivojlanishi va ularni amalda tatbiq etilishi uchun ham imkoniyat tug'dirib beradi.



Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi axborot xurujlari paytida axborotni yashirgan emas, balki uni birinchi bo'lib tarqatgan yutishini isbotlashning hojati yo'q. Albatta, u yoki bu tashkilot faoliyati davlat manfaati, siriga oid bo'lganida tushunish mumkin. Chunki davlatning u yoki bu sohadagi manfaatlari ta'minlangan bo'ladi.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasining-2012-yil 25-dekabrda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – 2012. – №12. – 335-m.
2. <https://lex.uz/2381133>
3. <https://lex.uz/2381133>
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 19-son, 209-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.08.2019 y., 03/19/559/3670-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.